

GLOBALLASHUV JARAYONIDA ONA TILI TA'LIMINI TASHKIL ETISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Nizomova Ismigul Zarif qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijodkor va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashda ona tili ta'limi, fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning samarali usullari haqida so'z yuritilgan. Mashq va topshiriqlar orqali ba'zi tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, darslik, VARK va VAK modeli, vizual, eshitish, kinestetik, o'qish, yozish, o'zbek tili.*

Bugun dunyo xalqlari globallashuv jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda o'zbek millatiga xos qadriyatlar bilan tarbiyalangan, o'zining azaliy tarixini tushungan, anglagan, o'zbekona va sharqona ruhdagi yosh avlodni tarbiyaash ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan sanaladi. Zero, o'zbek xalqi o'tmish madaniyati, tarixi, buyuk ajdodlari bilan dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan qadimiy millat hisoblanadi. Shu ma'noda adabiy ta'lim jarayonida ona tili va adabiyot fanlarini zamonaviy yo'nalishda tashkil etish, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarini maktabning lider o'qituvchilari sifatida shakllantirish, ular tarbiyasida barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi davrning eng muhim masalasidir. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti- bu uning milliy tili va adabiyotidir. Mustaqillik yillarida ona tilimizni tom ma'noda davlat tiliga aylantirish yo'lida katta chora-tadbirlar amalga oshirilgani barchamizga ma'lum. Bugungi maktab ta'limida yetakchi fanlardan hisoblangan ona tilini yosh avlodga innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish har bir pedagogdan kuchli bilim va katta salohiyatni, keng dunyoqarash-u, teran tafakkur tarzini talab qiladi. Sababi o'zbek tilining takomili, xalqaro maydonda ta'sir doirasining kengayishi hamda ajdodlarimiz merosini nafaqat yurtimiz kelajak avlodi, balki dunyo tamadduni, ilm-ma'rifati uchun xizmat qilishi barchamizning, eng avvalo, turkiy tilning daholijodkori Alisher Navoiyning azaliy orzularidan biri bo'lganligini aslo esdan chiqarmasligimiz zarur. Hazratning turkiy til rivojiga qo'shgan hissasi, tilimizning hech qaysi tildan kam bo'lmagan so'z boyligini asarlarida namoyon etishi, turkiy tilning mavqeyi va jozibasini yana bir bor isbotlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda ona tili darslarini samarali tashkil etish ta'lim jarayoning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashga ega shaxslarni tarbiyalash, asosan, ona tili darslari hamda ustozlariga bog'liq.

Nostandart usullarda o'quvchilarga ta'lim berish o'qituvchilarga fasilitatorlik (inglizcha, "osonlashtirish", jarayonni soddalashtirish") ni taqozo qiladi.

E'tibor qaratilsa, bugungi avlod xorijiy tillarni bilishga qiziqqan. Xususan, ingliz, rus tillari singari dunyo tillarini mukammal o'rganishga bel bog'lagani ma'lum bo'ladi hamda butun kuch va quvvatini xorijiy til o'rganishga sarflayotgan o'quvchilar ongida ona tili va adabiyotga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, ularni o'tmish ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ona tilining fasohat va balog'atini ular dunyoqarashiga singdirish ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifadir.

Barchamizga ayonki, ta'lim va tarbiya murakkab jarayon. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borgani sari yoshlarning fikr va e'tibori tarqoqlasha boshlaydi. Bu esa o'qituvchilardan bir qancha o'zgarishlarni, yangiliklarni va samaralikni oshirish kabi mas'uliyatli vazifalarni talab qiladi. Bunday holatda, albatta, ona tili va adabiyot o'qituvchisi mavzuni o'quvchida oson va qulay yetkazib berish uchun innovatsion yondashuvlar, turli metod va usullar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanadi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida maktab o'quvchilari uchun muvaffaqiyatli deb topilgan modellarni dars jarayoniga olib kirishga va tatbiq etish hamda natijalarini amaliyotda ko'rsatishga harakat qiladi. Ta'lim texnologiyalari nafaqat ona tili ta'limi uchun, balki barcha fanlarni o'zlashtirayotgan o'quvchilar uchun muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash ta'lim samaradorligini maksimal darajada oshirishga hissa qo'shadi. Shuning uchun texnologik vositalar va ularga qo'shimcha ravishda turli metod va uslublar o'qituvchilarga katta yordam beradi. **Bugungi** kungacha bizga ma'lum bo'lgan "Raqamli diktanlar", "o'yinli topshiriqlar" va didaktik o'yinlar", "kakografiya" kabi bir qancha zamonaviy metod va uslublar ona tilini o'qitishda o'zining natijasini ma'lum ma'noda ko'rsatgani barchamizni quvontiradi. Raqamli diktanlar ona tili darslarida o'quvchilarning intellektual qobiliyati va darsdagi mustaqilligini rivojlantirish barobarida fanning matematika bilan integratsiyalashuviga ham yo'l ochsa, o'yinli topshiriqlar o'quvchilarda og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishni maqsad qiladi. Aynan ta'lim jarayonida matn bilan ishlash ham o'quvchi nutqida samarali natijalarni ko'rsatadi.

Dunyo tan olgan, ta'lim jarayoni uchun samarali deb topilgan dars jarayonida o'qituvchining ishini yengillashtirish, o'quvchilar bilan oson kelisha olish, dars jarayonini tushuntirishda o'qituvchiga ortiqcha yuklamalarni kamaytirish uchun kerak bo'ladigan modellardan biri bu VARK modelidir. Vanderbilt universiteti ma'lumotlariga ko'ra, 70 dan ortiq turli xil uslublar mavjud, ammo hozirgacha eng mashhurlari VARK modelidan olingan to'rtta uslubdir:

1. Vizual (kosmik) - ko'rish orqali o'rganish. Bunda o'quvchilar ko'rgazmali qurollar va tasvirlar, grafiklar, diagrammalar hamda jadvallar orqali yaxshiroq o'rganadilar.


2. **Eshitish orqali o'rganish.** O'quvchilar tinglash va gapirish orqali o'rganishda ustundirlar.

3. **O'qish va yozish orqali o'rganish.** Bunda o'quvchilarning savodxonlik darajasi yetarlicha shakllanadi.

4. **Kinestetik (jismoniy) – harakat qilish va bajarish orqali o'rganish.** Bunda o'quvchilar jismoniy faoliyat va tajribalar orqali samaraga erishishadi

Albatta, bu uslublardan dars jarayonida ko'pchilik o'qituvchilar foydalanishadi. Ammo mohiyatan har bir uslubning o'ziga xosligi va natijasini farqlash lozim.

Bundan tashqari VAK o'rganish uslubi ham mavjud bo'lib, bu uslubda o'qish va yozish orqali o'rganish mavjud emas. VAK va VARK o'rganish uslublarini tasniflayotgan ikkita o'xshash modeldir. Ikkala model ham o'quvchilarni ma'lumot qabul qilish va qayta ishlashning afzal ko'rgan usullariga qarab toifalarga ajratishga qaratilgan. Quyidagi sxemada ushbu ikki modelni yanada osonroq farqlashga harakat qilamiz.



Ona tili ta'limida o'quvchilarga VARK modelining yuqorida sanab o'tgan uslublarini taqdim qilish va ularga mavzuni o'zlashtirish jarayonida uslubga mos savol va topshiriqlar berish talimda yuqori natijalarga erishishga ko'mak beradi. 7-sinf ona tili darsligida keltirilgan olmoshlar mavzusini tushuntirish va mavzuga oid mashq hamda topshiriqlarni bajarishda aynan ushbu model bizga yordam berishi tabiiy.

Demak, o'qituvchi vizual (kosmik) orqali o'rganish uslubida nazariy ma'lumotlarni turli grafiklar, jadvallar hamda sxemalarga joylashtirib o'quvchilarda dastlabki ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu o'rganish uslubida o'quvchilar dunyoqarashiga mos bo'lgan mavzuga oid tushunchalarini chizmalar, taqdimotlar hamda diagrammalar orqali ifodalashi hamda o'qituvchiga taqdim etishi mumkin. Hajman katta nazariy ma'lumotlarni qisqa shaklda turli sxemaga joylashtirib o'rgatish o'quvchi xotirasida uzoq muddatda ma'lumotlarning saqlanish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchi o'rganish uslubi eshitish orqali o'rganish bo'lib, bunda o'quvchilar turli ma'lumotlarni audio, radio eshittirishlar hamda turli suhbatlar orqali ma'lumot qabul qiladi. Ma'lum miqdorda yuqoridagi olgan boshlang'ich bilimlari haqida o'zida ko'nikma shakllantiradi va ajratishni boshlaydi.

Uchinchi o'rganish boshqichi bu o'qish va yozish bo'lib mavzuga oid bir matn orqali ikki vazifa ham bajariladi. Matnda berilgan ma'lumotlarni o'qish jarayonida taklif va xulosalari haqida boshqa bir matn yaratish imkoni paydo bo'ladi va yozish orqali amalga oshiriladi.

Oxirgi o'rganish usuli kinestitikda endi o'rganganlarini amaliyot hamda tajribada qo'llashi mumkin. Olmosh shaxs va narsalarga ishora qilgani bois kundalik hayotda murojaat qiladigan insonlarga, narsa va buyumlarga teginishi, ushlashi ularni o'rganganlariga mos shaklda ajratishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish zarurki, zamonaviy metod va uslublar fanning o'qitilish sifati va samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili fani o'quvchini mustaqil fikrlashga, og'zaki va yozma nutqini ravon bayon qilishga tayyorlaydi. Uning jamiyatda tutgan o'rni, insonlar bilan o'zaro munosabati, albatta, ona tilidan olgan bilim va malakalarining natijasi hisoblanadi.

Shuni unmaslik kerakki, yuqorida ta'kidlangan usul va metodlar bugungi o'quvchi dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Bir qarashda zamonaviy usullarning yangicha yondashuvi masalasi bugun paydo bo'lmagani anglashiladi. O'tmishda madrasalar ta'limida biz yuqorida ta'kidlab o'tgan usul va metodlar qo'llanilgan. Xususan, ilmi balog'a, ilmi badi singari san'at turlarini o'rganishda, o'zbek tilining fashat va balog'atini ko'rsatishda aynan yuqoridagi metod va usullardan foydalanilgan, ularning nomlanishi sharqona tarzda bo'lgan. Biz keyingi maqolalarda bu haqida batafsil ma'lumot berishni maqsad qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova, va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 b.
2. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, A. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.; 2006, 192 b.
3. <https://ahaslides.com>